AYRIM UMUMTA’LIM FANLARIDAN O‘QUV DASTURLARI
(*O‘quv maqsadlari va fan mazmuni*)

11-sinf Davlat va huquq asoslari fanining o‘quv maqsadlari va fan mazmuni

11-sinf (34 soat)		
T/R	**MAVZULAR**	**O‘QUV MAQSADLARI**
1.	**MEHNAT HUQUQI** (Mehnatga oid huquqiy munosabatlar, Aholini ishga joylashtirish, Mehnat shartnomasi, Ish vaqti va dam olish vaqti, Mehnatga haq to‘lash, Intizomiy va moddiy javobgarlik, Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini tartibga solish, Mehnat muhofazasi, **BSB-1**, Ijodiy faoliyat) (9 soat)	• Mehnat huquqiga oid huquqiy munosabatlar tushunchasi tushuntirish. • Mehnat huquqiga oid huquqiy munosabatlarning turlarini tahlil etish. • Mehnat qonunchiligiga oid manbalarni umumiy muhokama etish. • Mehnatga oid munosabatlarni tartibga solishdagi asosiy prinsiplarni tahlil etish. • Mehnat munosabatlaridagi ayrim huquqbuzarliklarni mehnat huquqining prinsiplari asosida huquqiy yechimlar taklif etish. • Ish bilan ta’minlanish huquqi haqida boshlang‘ich bilimlar berish. • Ish bilan ta’minlanishga oid davlat kafolatlarini huquqiy nuqtayi nazardan izohlash, vaziyatlarni tahlil qilish. • “Ishga marhamat” monomarkazlarining umumiy faoliyati haqida tanishtirish. • Fuqarolarni ishsiz shaxs sifatida hisobga qo‘yish va ishsiz shaxslarga beriladigan kafolatlarni muhokama qilish, vaziyatlarni tahlil qilish. • Aholining ayrim toifalarini ishga joylashtirishdagi qo‘shimcha kafolatlar haqida ma’lumot berish. • Mehnat shartnomasi tushunchasi va uning turlarini huquqiy mazmuni va zaruratini tushuntirish. • Ishga joylashishda talab etiladigan hujjatlarni bilib olish va qonunchilikka zid ravishda ortiqcha hujjatlar talab etish mumkin emasligini yoritish. • Mehnat shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish jarayonlarini tahlil etish. • Ishga qabul qilish tartibi va ishga qabul qilishni rasmiylashtirishning qonuniy talablarini tahlil etish. • Ishga qabul qilishni qonunga zid ravishda bekor qilishning huquqiy oqibatlarini huquqiy jihatdan muhokama qilish. • Mehnat shartnomasi “haqiqiy emas” deb topiladigan vaziyatlarni tahlil etish. • Ish vaqti tushunchasi va uning turlari haqida ma’lumotlar berish. • Ish vaqti tushunchasi va uning turlariga oid vaziyatlarni tahlil qilish. • Ish vaqti rejimi va ish vaqtini hisobga olish zarurligini asoslash va dalillar keltirish. • Dam olish vaqti tushunchasi va uning turlarining o‘zaro farqli jihatlarini tushuntirish.

		• Ta’tillar va ularning turlari bilish va farqlash ko‘nikmasini shakllantirish. • Mehnatga haq to‘lash tushunchasini sharhlash. • Mehnatga haq to‘lashga oid turli huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish. • Xodimlarning mehnatiga haq to‘lash sohasidagi asosiy kafolatlarni izohlash. • Ish haqi tushunchasi haqidagi umumiy bilimlarni muhokama etish. • Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori tushunchasini tahlil etish. • Ish haqining tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini o‘zaro taqqoslash. • Intizomiy javobgarlik tushunchasi haqida umumiy bilimlarni sharhlash. • Intizomiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi turli vaziyatlarni tahlil qilish. • Intizomiy jazo tushunchasi va uning turlarini sharhlash. • Intizomiy jazolarni qo‘llash tartibini huquqiy nuqtayi nazardan izohlash va baholash. • Moddiy javobgarlik tushunchasi va turlarini bilish, ish beruvchining xodim oldidagi va xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligini tushunish, vaziyatlarni tahlil qilish. • Mehnat munosabatlarida ayrim toifadagi xodimlarning tasnifini farqlash ko‘nikmasini shakllantirish. • Mehnat munosabatlarida ayollar, voyaga yetmagan va nogironligi bo‘lgan shaxslarga berilgan ayrim kafolatlarning xususiyatlarini muhokama qilish. • Ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan shaxslarning mehnatini hamda boshqa ayrim toifadagi xodimlar mehnatini tartibga solishning xususiyatlarini izohlash va taqqoslash. • Mehnat muhofazasi tushunchasini sharhlash. • Mehnat muhofazasiga oid turli vaziyatlarni muhokama etish. • Ish joylariga nisbatan qo‘yiladigan talablarni baholash. • Davlat mehnat inspektorlarining faoliyatini tahlil etish. • Davlat mehnat inspektorlarining tekshiruvlarining natijasini baholash. • Mehnat huquqiga oid umumiy bilimlarini sinovdan o‘tkazish. • Mehnat huquqiga oid turli vaziyatlarga huquqiy baho berish. • Turli mehnat nizolari uchun boshlang‘ich huquqiy maslahat bera olish ko‘nikmasini shakllantirish. • Mehnatga oid huquqiy munosabatlarga bo‘lgan ijodiy yondashuvni shakllantirish.
2.	**Ma’muriy-huquq** (Ma’muriy huquq tushunchasi, Davlat xizmatlaridan foydalanish, Ma’muriy-huquqiy nizolar, Ma’muriy	• Ma’muriy-huquqiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish. • Ma’muriy huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarni farqlash ko‘nikmasini shakllantirish. • Ma’muriy sud faoliyati haqida umumiy tasavvurlar yaratish. • Ma’muriy organ tushunchasini sharhlash. • Ma’muriy huquq va ma’muriy huquqbuzarlik tushunchalarini farqlash ko‘nikmasini shakllantirish.

	huquqbuzarlik va ma’muriy javobgarlik, Huquqbuzarlikni oldini olish, **ChSB-1,** Ijodiy faoliyat) (7 soat)	• Ma’muriy huquq subyektlarini aniqlay olish va ular o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tahlil qilish. • Davlat xizmatlari tushunchasini tushuntirish va ularning jamiyatdagi ahamiyatini izohlash. • Davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi asosiy davlat organlarini aniqlash va ularning vazifalarini sharhlah. • Davlat xizmatlari turlari va shakllarini farqlash va misollar bilan izohlash. • Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish. • Ma’muriy-huquqiy nizoni tushunchasini tahlil etish. • Turli ma’muriy-huquqiy nizolar bo‘yicha vaziyatlarni izohlash. • Ma’muriy-huquqiy nizoning ishtirokchilari tarkibini tushuntirish. • Ma’muriy-huquqiy nizo yuzasidan shikoyat qilish huquqini bilish va uni asoslsh. • Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan davlat organlarining noqonuniy qarorlari, harakatlari yuzasidan shikoyat qilish tartibini muhokama qilish. • Ma’muriy sudlar tomonidan hal etiladigan ishlar haqida umumiy tasavvurlarni yaratish. • Ma’muriy huquqbuzarlik tushunchasini sharhlash. • Ma’muriy huquqbuzarlik turlarini farqlay olish va misollar bilan dalillash. • Ma’muriy javobgarlik tushunchasini tushuntira olish va vaziyatlarni tahlil qilish. • Voyaga yetmaganlarning ma’muriy javobgarligi tartibini muhokama qilish. • Ma’muriy jazo tushunchasi va maqsadini izohlash. • Ma’muriy jazolarning turlarini sanab bera oladi va har biriga hayotiy misollar bilan yoritish. • Ma’muriy jazo qo‘llanish muddatlarini tahlil qilish. • Huquqbuzarliklar profilaktikasi tushunchasini muhokama etish. • Yoshlarning huquqbuzarligini oldini olish bo‘yicha milliy qonun hujjatlari bilan dalillash. • Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalar faoliyati haqida ma’lumotlar berish va asoslash. • Profilaktik suhbat, rasmiy ogohlantirish va profilaktik hisobga olish kabi tushunchalarini farqlash ko‘nikmasini shakllantirish. • Ma’muriy huquqiga oid umumiy bilimlarni sinovdan o‘tkazish. • Ma’muriy huquqiy munosabat va ma’muriy huquqbuzarlik tushunchalarini turli vaziyatlar asosida farqlash ko‘nikmasini shakllantirish. • Ma’muriy huquqbuzarliklarning darajasini baholash.
3.	**Jinoyat huquqi. Kriminoligiya** **(**Jinoyat huquqi, Jinoiy javobgarlik va jazo	• Jinoyat huquqi tushunchasini haqida ma’lumotlar berish. • Jinoyat huquqining asosiy prinsiplarini sanab berish va har biriga misol bilan dalillash. • Jinoyat huquqi va ma’muriy huquqbuzarlik huquqi tushunchalarini farqlash ko‘nikmasini shakllantirish.

	tizimi, Shaxsga qarshi jinoyatlar, Zo‘ravonlik va uni oldini olish, Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar, Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar, Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar, Jinoyat protsessual huquqi, **BSB-2. Loyiha ishi taqdimoti**, Ijodiy faoliyat) (12 soat)	• Jinoyat tushunchasini izohlash. • Jinoyat uchun javobgarlik tushunchasini muhokama qilish. • Jazo tushunchasini tushuntirish va uning maqsadlarini sharhlash. • Jazo tizimi va uning turilarini farqlash ko‘nikmasini shakllantirish. • Jinoiy jazolarning har bir turini sharhlash. • Jazo tayinlashning umumiy asoslarini tushunish va vaziyatlarni tahlil qilish. • Shaxsga qarshi jinoyatlar tushunchasini tushuntirish va sharhlash. • Shaxsga qarshi jinoyatlarni boshqa jinoyatlardan farqlash ko‘nikmasini shakllantirish. • Shaxsga qarshi jinoyatlarning turlarini sharhlash. • Shaxsga qarshi jinoyatlarga oid turli vaziyatlarni huquqiy baholash. • Zo‘ravonlik tushunchasini muhokama qilish. • Zo‘ravonlikning turlarini izohlash. • Zo‘ravonlikka oid turli vaziyatlarga huquqiy baholash. • “Bulling” tushunchasining mohiyatini ochib berish. • Zo‘ravonlikdan saqlanish choralarini ko‘rish ko‘nikmasini shakllantirish. • Zo‘ravonlikdan saqlanishga oid vaziyatlarni tahlil qilish. • Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarni o‘ziga xos xususiyatlarini sharhlash. • Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarning turlarini izohlash. • Yollanish jinoyati tushunchasini bilish. • Aggressiya jinoyati tushunchasini tushunish. • Genotsid jinoyati tushunchasini muhokama qilish. • O‘zbekiston hukumatining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi faoliyatini tahlil etish. • Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar tushunchasini sharhlash. • Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar turlarini farqlay olish. • Bosqinchilik jinoyatining xavflilik xususiyatini tushunish. • Tovlamachilik jinoyatining o‘ziga xos xususiyatini tahlil etish. • Talonchilik jinoyatini boshqa jinoyatlardan farqlash ko‘nikmasini shakllantirish. • Firibgarlik jinoyatining xavflilik xususiyatini tushunish. • O‘g‘rilik jinoyatining xususiyatlarini baholay olish. • Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarni tushuntirish. • Pora olish, pora berish va vositachilik qilish jinoyatini tushunish va vaziyatlarni tahlil qilish. • Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining o‘ziga xos xususiyatini tahlil etish. • Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish jinoyatining xususiyatlarini baholash.

		• Jinoyat protsessual huquqi tushunchasini o‘rganish. • Jinoyat protsessual huquqi va jinoyat huquqining o‘zaro farqlash ko‘nikmasini shakllantirish. • Jinoyat protsessi tushunchasini izohlash. • Jinoyat protsessi prinsiplarini sharhlash. • Jinoyat protsessi prinsiplarini turlarga ajratib, tasniflash. • Shaxslarni ushlab turish asoslarini tushuntirish. • So‘roq qilish tartibini tahlil etish. • Olib qo‘yish protsessual harakati amalga oshirishga huquqiy baholash. • Tintuv o‘tkazish asoslarini muhokama etish. • Kriminalogiya tushunchasini sharhlay olish. • Jinoyatlarni kelib chiqish sabablarini kriminalogik jihatdan tahlil etish. • Jinoyat huquqiga oid umumiy bilimlarni sinovdan o‘tkazish. • Vaziyatlarga kriminologik jihatdan baho berish. • Vaziyatlarga jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan izoh berish.
4.	**Ekologiya huquqi** **(**Ekologiya huquqi tushunchasi, Ekologik-huquqiy javobgarlik, Biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, **ChSB-2**, Ijodiy faoliyat) (6 soat)	• Ekologiya huquqi tushunchasini tushintirish. • Atrof muhit barqarorligiga erishishda huquqning o‘rni va rolini sharhlash. • Tabiatni muhofaza qilish maqsadlarini anglash. • BMTning atrof-muhit bo‘yicha maxsus dasturi haqida umumiy bilimlar berish. • O‘zbekiston Respublikasida davlat ekologik siyosatining asosiy yo‘nalishlari va atrof-muhit muhofazasiga oid qonun hujjatlari izohlash. • “Yashil makon” dasturini tahlil etish. • Ekologik huquqiy javobgarlik tushunchasini sharhlash. • Ekologiya sohasidagi yuridik javobgarlikning turlarini va vaziyatlarni tahlil qilish. • Ekologiya sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklarni tushuntirish. • Ekologiya sohasidagi jinoyatlarni sharhlash. • Ekologiya sohasidagi jinoyatlar va ma’muriy huquqbuzarliklarning o‘zaro farqli jihatlarini tahlil etish. • Asosiy ekologik muammolarni va ularni bartaraf etishda yuridik javobgarlikning ahamiyatini tushuntirish. • Biologik xilma-xillik tushunchasini tushuntirib berish. • Hayvonot dunyosini huquqiy jihatdan muhofaza qilish choralarini tahlil qilish. • O‘simlik dunyosini huquqiy muhofaza qilish chora-tadbirlarini izohlab berish. • Yerdan foydalanishdagi huquqiy muammolarni sharhlash. • Suv resurslaridan foydalanishga oid ayrim masalalarni tahlil etish.

		• Atmosfera havosini huquqiy muhofaza qilish tushunchasini tushuntirib berish. • Ekologiya huquqiga oid umumiy bilimlarini sinovdan o‘tkazish. • Ekologiya sohasiga oid turli muammoli vaziyatlarni aniqlash. • Ekologiya sohasidagi muammolarga huquqiy yechim berish va takliflar ishlab chiqish.